



11. Willison, J. & O'Regan, K. (2007). *Research Skill Development Framework*. The University of Adelaide.
12. O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li. (2025). INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. TA'LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 380-388.
13. R.A.Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING IJTIMOIIY MUHITGA TA'SIRI. ZAMONAVIIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI, 1(1), 16-19.

YANGI O'ZBEKISTONDA BOKS SPORT TURINING RIVOJLANISH TARIXI

Abdurayimova Madina To'raboy qizi

GulDu magistri, Guliston sh.

Madinabozorova611@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boks sport turning qadimiy davlatlarda rivojlanish bosqichi, O'zbekistonda ilk marotaba o'ynalishi, boks sportiga bo'lgan e'tibor, ommalashtirish holati, Yangi O'zbekiston bokschilarining xalqaro doiradagi yutuqlari aks etgan.

Kalit so'zlar: ilk davrlar, boks federatsiyasi, boks maktablari, xalqaro turnirlar, boks chempionlari.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF BOXING IN NEW UZBEKISTAN

Abdurayimova Madina Turaboy qizi

GulDu Master, Gulistan city

Madinabozorova611@gmail.com

Abstract. The article reflects the development stage of boxing in ancient countries, its first appearance in Uzbekistan, attention to boxing, the state of its popularization, and the achievements of boxers of New Uzbekistan in the international arena.

Keywords: early times, boxing federation, boxing schools, international tournaments, boxing champions.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ БОКСА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Абдурайимова Мадина Турабой кызы

Мастер ГулДу, город Гулистан

Мадинабозорова611@gmail.com

Аннотация. В статье отражены этапы развития бокса в древних странах, его первое появление в Узбекистане, внимание к боксу, состояние его популяризации и достижения боксёров Нового Узбекистана на международной арене.

Ключевые слова: древность, федерация бокса, школы бокса, международные турниры, чемпионы по боксу.

Boksni hamma davrlar sporti hisoblanadi. Uning rivojlanish tarixi besh ming yildan ziyod davrga teng. Qo'l jangi sport yakka kurashi sifatida jamiyat rivojlanishining ilk davrlarida paydo bo'lgan bo'lib, ko'pgina xalqlar o'rtasida turli xil ko'rinishlarga ega.

Fir'avnlr sag'analari devorlarida aks ettirilgan qo'ljangi lavhalari shuni tasdiqlaydiki, ushbu yakkakurash turi qadimgi Misrda ham mavjud bo'lgan. Bizgacha Krit-Miken madaniyati davrining qo'ljangi tasvirlari yetib kelgan. Qo'ljangi ayniqsa Qadimiy Gretsiyada(Yunonistonda)keng tarqalgan edi. 23-Olimpiadadan (e.a.688y.) boshla buning Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgani fikrimiz dalilidir. [5] Zamonaviy boks vatani Angliyadir (XVI-XVII asrlar). boksning dastlabki qoidalari shu mamlakatda qabul qilingan (1867). Xalqaro havaskor bokschilar assotsiatsiyasiga (AIBA; 1946-yil asos solingan) 160 mamlakat a'zo (1999). boks 1904-yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan, 1974-yildan jahon chempionati, 1979-yildan Jahon kubogi musobaqalari o'tkazib kelinadi. O'zbekistonda zamonaviy boks



XX asrning 20- yillaridan ommalashdi. Ilk boks musobaqasi 1922-yil Toshkentdagi "Fortuna" sport jamiyatida o'tkazilgan. Uni S.L. Jakson uyushtirgan. Bu murabbiy yuzlab boks chilarni tarbiyaladi. O'zbekistonda keyingi yillarda shaxsan Prezident Islom Karimovning sportga qaratgan e'tibori natijasida boks jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi boks federatsiyasi 1993-yildan AIBA a'zosi. Mamlakatda 4 olimpiya o'rinbosarlari bilim yurti va o'nlab bolalar o'smirlar sport maktabida yoshlarga boks sirlari o'rgatilmoqda. 20 dan ziyod zamonaviy boks zallari shug'ullanuvchilar ixtiyorida. Boks milliy terma jamoasi 1999-yil jahon chempionatida faxrli 3-o'rinni egalladi. O'zbekistonning R.Risqiyev, 'Shin, N.Anfimov, G.Ilyosov, M.Abdullayev, O'.Xaydarov, R. Chagayev, T. To'lyakov, L. Zokirov, N. Otayev, T.Turg'unov, H. Ahmedov, K. To'laganov, R. Saidov, S. Mixaylov, D. Yorbekov, D.Avezboyev kabi bokschilari katta yutuklarga erishgan.[2]

2016-yildan O'zbekiston tarix sahnasiga yangi qadam qo'ydi. 2016-yil Olimpiadada eng ko'p medalni bokschilarimiz qo'lga kiritishdi. CHarm qo'lqop ustalarimizning 7 nafari Riordan medal bilan qaytishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Ular: Hasanboy Do'smatov, SHahobiddin Zoirov, Fazliddin G'oibnazarov (oltin), SHahram G'iyosov, Bektemir Meliqo'ziev (kumush), Rustam To'laganov (bronza), Murodjon Ahmadaliev (bronza). Ushbu natija Olimpiadadagi boks musobaqalaridagi eng zo'r natijadir. Sportning ushbu turida medal jamg'arish bo'yicha ular Kuba, Qozog'iston va Rossiyadan tashrif buyurgan raqiblarini ortda qoldira oldilar.[7]

Yoshlarni qo'llap-quvatlash uchun davlat turli xildagi grant loyihalar e'lon qildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida „Yoshlar-kelajagimiz“ jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 2018-yil 18-avgust kuni farmon berildi.[6] “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi yosh sportchilarga yaratilayotgan sharoitlar, ajratilayotgan mablag'lar va qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali mazkur yo'nalishning taraqqiyotiga muhim hissa qo'shmoqda. Bu esa kelgusida xalqaro maydonlarda yuqori natijalar ko'rsatadigan yetuk bokschilarni kamolga yetkazishga zamin yaratadi.

Tokyo 2020 Olimpiadasida O'zbekiston bokschilari ushbu o'yinlarda juda muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Bahodir Jalolov super-og'ir vaznda oltin medalni qo'lga kiritdi. Jami o'zbek bokschilari 3 ta oltin va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdilar. Bu natija mamlakat tarixida muhim yutuq hisoblanadi.[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.04.2021 yildagi PQ-5099-son BOKSNI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA Mamlakatimizda yoshlarning boksga bo'lgan ommaviy qiziqishini inobatga olib, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) tizimini yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag'batlantirilishini yaxshilash, shuningdek, o'zbek boksining dunyodagi yetakchiligini saqlab qolish va davom ettirish maqsadida amalga oshirildi.[2]

Parij 2024 Olimpiadasi O'zbekiston bokschilari bu Olimpiadada rekord natija qayd etdilar. Mamlakat vakillari 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal bilan muvaffaqiyatga erishdilar. Oltin medallarni qo'lga kiritgan bokschilar quyidagilar: Hasanboy Dusmatov (-51 kg), Abdumalik Khalokov (-57 kg), Asadkhuja Muydinkhujaev (-71 kg), Lazizbek Mullojonov (-92 kg) va Bakhodir Jalolov (+92 kg). Shu tariqa Jalolov ikki karra Olimpiya chempioni bo'ldi.[4]

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonda boks sporti so'nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda va bu jarayon mamlakatimiz sport siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mustaqillik yillarida davlat tomonidan sport inshootlari, trening markazlari va professional murabbiylar tayyorlash tizimi tashkil etildi. Yoshlar kelajagimiz jamg'armasi kabi loyihalar orqali yosh avlodning boksga bo'lgan qiziqishi oshirildi, malakali sportchilarni tarbiyalash va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish imkoniyati yaratildi. O'zbek bokschilari xalqaro maydonlarda, xususan Olimpiya o'yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda, bu esa mamlakatimiz sport obro'sini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, boks sporti nafaqat musobaqalarda g'alaba qozonish bilan chegaralanmay, balki yoshlar tarbiyasi, intizom, matonat va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusida boksni yanada rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, murabbiylar va sportchilarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajriba va texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, boks sporti nafaqat yirik yutuqlarni taqdim etadi, balki yoshlarni sog'lom, maqsadli va ijtimoiy faol bo'lishga undaydigan kuchli vosita bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1 . Boks//Wikipedia <https://share.google/DcBIVpZbj902BCQWB//>
Olingan sana: 09.11.2025.



2. „Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni <https://share.google/9D9hV2YiOLENZv6Z4//> Olingan sana:09.11.2025.
3. https://www.olympic.uz/en/news/1041?utm_source=chatgpt.com//
Olingan sana: 09.11.2025.
4. https://kun.uz/en/news/2024/08/12/uzbekistans-historic-success-at-paris-2024-olympics?utm_source=chatgpt.com//
Olingan sana: 09.11.2025.
5. O’ZBEKISTONDA BOKS SPORTINING RIVOJLANISH TARIXI
<https://share.google/UPkYPaFrGQIEmpKpJ//> Olingan sana:08.11.2025
6. O’zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi “Yoshlar-kelajagimiz” jamg’armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida <https://share.google/qqSeg1zx1xas5cy1Q//>
Olingan sana: 08.11.2025.
7. O'zbekiston Rio-2016 Olimpiadasida: yakunlar, statistika va tahlil / Olamsport.com//
<https://share.google/Hw8vgJOsirh1y6vm1//>
Olingan sana:09.11.2025.

BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARIDA OILAVIY-QO’SHNICHILIK MUNOSABATLARI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH VA IJTIMOIYLASHUVI.

Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna
ChDPU Maxsus pedagogika kafedrasida o’qituvchisi
zulfiyajumaniyazova2@gmail.com +998975451264

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy qo’shnychilik munosabatlari asosida aholi bilan ijtimoiy ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, diniy bag’rikenglik, aholining ishchanlik faolligi, qo’shni davlatlar bilan hamkorlik masalalari haqida yoritilgan. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida oilaviy-qo’shnychilik munosabatlari tushunchalarini shakllantirish va ijtimoiylashuviga ko’maklashish eng muhim bosqichlari haqida ma’lumot beriladi. U o’quvchi jamoa oldida o’zini boshqarishga, obro’yini mustahkamlashga, tengdoshlari o’rtasida o’z ornini topishga yordam berish maqsadida ishini to’g’ri tashkil qilish jihatlari haqida ma’lumotlar beriladi. Ko’zi ojiz bolalar jamiyat hayotida to’laqonli ishtirok etishi uchun faqat maktabdagi ta’lim emas, balki oila, qo’ni-qo’shnilar va mahalla muhitining bola hayotidagi o’rnining muhimligi ko’rsatiladi.

Maqolada o’qituvchining o’zini namoyon qilishi uchun zarur bo’lgan fazilatlar —mahorat, axloqiy madaniyat, bilim ko’nikmalar, o’ziga nisbatan talabchanlik, munosabatlarni shakllantirish jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: axloqiy madaniyat, o’qituvchi konikmalari, qo’shnychilik, muomala madaniyati, o’qituvchi obro’si, ijodkorlik, o’quvchi bilan muloqot, o’quvchi obro’si qo’shnychilik munosabati, diniy bag’rikenglik, fuqaro, aholi, jamiyat

FORMATION AND SOCIALIZATION OF CONCEPTS OF FAMILY-NEIGHBORLY RELATIONSHIPS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Zhumaniyazova Zulfiya Aitbayevna
Lecturer of the Department of Special Pedagogy of CHPU
zulfiyajumaniyazova2@gmail.com +998975451264

Abstract: This article provides information on the most important stages of forming and promoting the socialization of concepts of family-neighborly relations in primary school students. It provides information on the proper organization of work to help students manage themselves in the student collective, strengthen their reputation, and find their place among peers. In order for blind children to fully participate in the life of society, the importance of not only school education, but also the role of the family, neighbors, and the environment of the mahalla in the child's life is shown.

The article analyzes the qualities necessary for a teacher's self-expression - skills, moral culture, knowledge and skills, self-discipline, and the formation of attitudes.